



ON THE ISSUE OF INCREASING THE LEVEL AND QUALITY OF HIGHER EDUCATION

Dilorom Ibragimovna Vasiyeva

Candidate of Historical Sciences, Associate Professor

Karshi State Technical University

Karshi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Independence, education, upbringing, innovation, "Uzbek model", "Strategy of actions", "Development strategy", pedagogical personnel, specialist, intellectual potential, human capital, international rating, scientific research, modernization, talent, reform, national rating.

Received: 10.11.25

Accepted: 11.11.25

Published: 12.11.25

Abstract: This article discusses the priority areas of reforming the higher education system of Uzbekistan, reforms in the higher education system, the creation of necessary conditions for students and young people to receive education, improving the quality of educational work, training competitive personnel, forming creative abilities in future specialists, and assessing the current state of some aspects of the higher education system.

OLIY TA'LIM DARAJASI VA SIFATINING YUKSALISH MASALASIGA OID

Dilorom Ibragimovna Vasiyeva

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Qarshi, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Istiqlol, ta'lim, tarbiya, innovatsiya, "O'zbek modeli", "Harakatlar strategiyasi", "Taraqqiyot strategiyasi", pedagog kadrlar, mutaxassis, intellektual salohiyat, inson kapitali, xalqaro reyting, ilmiy tadqiqot, modernizatsiya, iste'dod, islohot, milliy reyting.

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar, talaba-yoshlarning ta'lim olishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishi, ta'lim-tarbiya ishlari sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, bo'lajak mutaxassislarda ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish hamda oliy ta'lim tizimining bugungi kundagi ba'zi jihatlarini

К ВОПРОСУ О ПОВЫШЕНИИ УРОВНЯ И КАЧЕСТВА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Дилором Ибрагимовна Васиева

Каршинский государственный технический университет

Кандидат исторических наук, доцент

Карши, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: независимость, образование, воспитание, инновации, «узбекская модель», «Стратегия действий», «Стратегия развития», педагогические кадры, специалист, интеллектуальный потенциал, человеческий капитал, международный рейтинг, научные исследования, модернизация, талант, реформа, национальный рейтинг.

Аннотация: В данной статье рассматриваются приоритетные направления реформирования системы высшего образования Узбекистана, реформы в системе высшего образования, создание необходимых условий для получения образования студентами и молодёжью, повышение качества учебно-воспитательной работы, подготовка конкурентоспособных кадров, формирование творческих способностей у будущих специалистов, а также дается оценка современного состояния некоторых аспектов системы высшего образования.

Kirish. Istiqloqlarning dastlabki yillaridan boshlab mamlakatimizda ta'lim tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, yoshlarning jahon andozalari darajasida zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallashi, jismonan va ma'nan yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishi, ularning qobiliyat va iste'dodini, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Davlatning ertangi kuni yoshlarning qay darajada bilimli ekani bilan bevosita bog'liq. Shu bois, ta'lim tizimini rivojlantirish masalasiga hukumat darajasida e'tibor qaratilishi har bir davlatning muhim vazifasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" deb ta'kidlagan.

Darhaqiqat, ta'lim o'z ildizlarini ilm- fan va ishlab chiqarish, ijtimoiy turmush, bir so'z bilan aytganda, hayot bilan bog'lay olgan, ichki va turdosh tarmoqlar bilan har tomonlama integratsiyaga kirishgan taqdirdagina o'z oldiga qo'ygan natijalarga erisha oladi, fan, ta'lim-

tarbiya va iqtisodiyotning o'zaro chuqur, har tomonlama uzluksiz aloqasini ta'minlay olgan va jamiyat hayotining barcha sohalariga tadbiq eta olgan davlat esa taraqqiyotga erishadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashning maqsadli yo'nalishlarini aniqlash, ayniqsa, pedagog kadrlarning kasbiy malakalari va bilim saviyasini uzluksiz yuksaltirish eng dolzarb masalalardandir.

O'zbekiston Respublikasida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va madaniy rivojlanishida ustuvor soha deb e'lon qilingan ta'limning takomillashtirilishi, eng avvalo, uning sifat jihatidan yangi holatiga erishishga yo'naltirilgan. Bu ko'plab yo'nalishlar bo'yicha hal etilayotgan favqulodda murakkab, majmuaviy muammodir. Ulardan biri ijtimoiy hayotni boshqarishning o'ziga xos shakli bo'lgan ta'lim tizimini boshqarish mexanizmini takomillashtirish va qayta qurishni o'z ichiga oladi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909 - sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi, 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3151-sonli "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalar va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora tadbirlari to'g'risida"gi hamda 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalari ta'lim sifatini oshirish va mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli qo'shimcha chora tadbirlar" to'g'risidagi PQ-3775-sonli qarori, 2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli farmoni hamda 2019 yil 11 iyuldagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4391-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 3 dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarini bosqichma-bosqich o'zini o'zi moliyalashtirishga o'tkazish to'g'risida"gi 967-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 25 fevraldagi 133-f-sonli farmoyishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar to'g'risidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham dolzarb masalalar qatorida ilm fan va ta'lim, ta'lim va ijtimoiy iqtisodiy hayot munosabatlariga alohida urg'u berilganligi bejiz emas.

Bugungi kunda ta'lim davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishiga aylandi. Mustaqillik yillarida davlat budjeti xarajatlarining tarkibi sifat jihatidan o'zgardi. Hozirgi vaqtda davlat xarajatlari tarkibida kuchli ijtimoiy siyosat va aholini ijtimoiy himoya qilishni amalga oshirishni moliyalashtirish asosiy o'rin tutadi. 2024 yilda Davlat budjeti xarajatlarining 50 foizi ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan. Xususan, ta'lim, fan, sog'liqni saqlash sohalariga ijtimoiy xarajatlarning 72 foizi yo'naltirildi. Ta'limga ajratilgan mablag'lar miqdori o'tgan uch yilda qariyb 12 trillion so'mga oshirildi va 45 trillion so'mga yetdi

Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda ta'lim tizimi uch asosiy sababga ko'ra muhim ahamiyat kasb etadi. Bular:

- kishilarning qonunga amal qilish va demokratik jamiyatga asoslangan jamiyatni qurishda ishtirok etish huquqidan foydalanishlarida ta'lim asosiy omillardan biri bo'lib hisoblanadi;
- ta'lim iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi va kishilarga iqtisodiyotga moddiy hissa qo'shish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni beradi;
- ta'lim ijtimoiy boylikni muhim qismi hisoblanib, u o'zbek xalqining boy tafakkuri va milliy merosini tiklashda asos vazifasini o'taydi.

Ta'lim inson omiliga sarflanuvchi sarmoyadir. Umuman, jamiyat bundan manfaatdor. Zero ta'lim darajasi va sifatining yuksalishi iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, mehnat unumdorligini oshiradi, ijtimoiy muammolarning oqilona yechimlarini topib, pirovard natijada mamlakatning xalqaro hamjamiyatidagi o'rnini belgilaydi.

Natija va muhokamalar. Kuchli xalqaro raqobat sharoitida mavjud iqtisodiy muammolarni hal etish uchun aholining intellektual salohiyatidan to'liq va unumli foydalanishni ta'minlash zarur. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri bilimli bo'lish va iste'dodni rag'batlantirish; ta'lim tizimida davlat va jamiyat boshqaruvini uyg'unlashtirish ekanligi va ta'lim hamda tarbiyaning insonparvar, demokratik tavsifga egaligi qilib belgilangan. Bilim ta'lim sohasining mahsuli sifatida o'ziga xos belgilarga ega: u bebaxo ijtimoiy ne'mat; cheklanmagan va foydalangan sari kamaymaydi; makonga bog'liq emas; qaytarilmaydi; vujudga keltirgan qiymati keyinchalik undan foydalanish intensivligiga bog'liq emas; vaqt bilan bog'liq va h.k.

O'zbekistonda bozor islohotlarining boshlanishi rejali iqtisodiyot sharoitida kadrlar tayyorlashda yo'naltirilgan hamda davlatning nafaqat kadrlar tayyorlashga bo'lgan ehtiyojining mayda ikir- chikirlarini, balki, ta'lim shakli, uslubi va g'oyasini ham belgilab beradigan tizimni jiddiy qayta qurishni taqozo etdi. Yangi sharoitlar oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash tuzilmasi, ularning bilim va ko'nikmalariga bo'lgan talabni o'zgartirdi. Enililikda yangi bilimlarni amalga qo'llay oladigan, muayyan kasb sohasidagi innovatsion imkoniyatlar ko'lamini tushuna oladigan kadrlarga talab yuqoridir. Bular nafaqat joriy xo'jalik va ishlab chiqarish masalalarini malakali hal qiladigan, balki, qaror qabul qila oladigan, tahliliy qobiliyatga ega, yuqori darajali mutaxassislar bo'lishi lozim. Istiqbol yillarida ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida ko'plab ijobiy ishlar amalga oshirilganini ta'kidlagan holda, aytishimiz joizki, maqsadlar va ularga erishish usul va vositalarini aniq belgilay olmaslik, mehnat bozori talablarini chuqur o'rganmaslik, undagi talab va taklifning nomuvofiqligi, odamlarning ijtimoiy ahvoli va hohish-istaklarini inobatga olmaslik oqibatida anchagina jiddiy xato va kamchiliklar ham kuzatildi.

O'zbekiston Respublikasining Oliy ta'lim tizimi iqtisodiyotning erkinlashuvi bosqichida shunday darajada bo'lishi kerakki, xalqaro miqyosda fan, texnika, yuksak texnologiyalar

sohasidagi so'nggi yutuqlar va mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishi tendensiyalarini hisobga olib, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni ta'minlashga qodir bo'lishi lozim. Raqobatbardosh kadrlarning yangi avlodi kelgusida o'z oldiga ta'lim tizimini isloh etishning dolzarb masalalarini qo'yib, yuqori madaniyat, iqtisodiy tafakkurga ega, ilmiy-texnik va ijtimoiy-iqtisodiy axborotlarni mustaqil tahlil qilishga va tegishli masalalarni ijobiy hal qilishga qodir bo'lishi zarur.

Shu o'rinda shuni aytib o'tish kerakki, mamlakatimizning ta'lim tizimini isloh qilishga oid quyidagi tamoyil va yondoshuvlar xalqaro miqyosda tan olinmoqda:

- XXI asr-intellektual tafakkur asrida inson kapitaliga investitsiya yo'naltirishni ustuvor vazifa sifatida tanlagan mamlakatlarga yuksak taraqqiyotga erishishi mumkin. Faqat shunday jamiyatgina zamonaviy tahdid va muammolarni yengib o'tishga qodir;

- Bugungi kunda har qanday mamlakatning jahon bozoridagi raqobatdoshligi nafaqat tabiiy rusurlarning mavjudligiga, balki, birinchi navbatda, zamonaviy, muntazam yangilanib turadigan texnologiyalarni o'zlashtirishga qodir, yuksak bilimli va intizomli ishchi kuchini muntazam tayyorlab borilishiga ham bog'liq. Bunday ishchi kuchisiz iqtisodiyotning yuksak texnologiyalarga asoslangan zamonaviy tuzilmasini shakllantiradigan yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etib bo'lmaydi;

- Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni umumlashtirgan holda, zamonaviy bilim, intellektual salohiyat va ilg'or texnologiyalarga ega bo'lgan odamlarga rivojlanishda o'z oldiga qo'ygan strategik maqsadlarga erisha oladi;

- Jamiyatda bilimli, ma'lumotli va yuksak, zamonaviy intellektga ega bo'lgan insonlarning mavqeini oshirish ta'lim tizimini isloh qilishning asosiy tamoyillaridan biri bo'lishi lozim;

- Ta'lim sohasida zamonaviy talab qilinadigan tarmoqlar vakillari o'rtasida xalqaro hamkorlikni muntazam rivojlantirish zarur.

Oliy ta'lim muassasasi layoqatliligining asosiy ko'rsatgichi uning jamiyatdagi o'zgarishlarni oldindan ilg'ab olish va faoliyatini shu asosda tashkil etishga qodirligidadir. Faqat shundagina uning ilmiy-ta'limiy faoliyati natijalariga to'liq hajmda jamiyat tomonidan talab mavjud bo'ladi. Ish beruvchilarning tanloviga oliy ta'lim muassasasining ijtimoiy ahamiyati va nufuzi ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida mamlakatimizda uzluksiz ta'lim jumladan, oliy ta'lim tizimi jahon talablari darajasida, yuksak ma'naviyat zaminida qurilib, davlat ta'lim standartlari va tegishli ta'lim dasturlari bilan ta'minlandi. Shuning uchun, ta'lim tizimini doimo isloh etish, o'qitish usul va vositalarini takomillashtirish, ta'lim mazmunini boyitish bugungi kunning muhim talabidir. Bu esa o'z o'rnida zamonaviy raqobatbardosh-kadrlarni tayyorlash jarayoniga va ularning malakasiga bo'lgan talablarni kuchaytirishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T., O'zbekiston, 2016. –B.14.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-sonli farmon. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son; 30.04.2020 y., 06/20/5987/0521-son.
3. 2017 - 2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Prezidentining PF-4947-sonli farmoni. 07.02.2017 y.
4. “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-sonli qaror.
5. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ – 637 – son.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2023 yil 28 dekabr. – www.uza.uz.